



YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA INSHO YOZISH TEXNIKASINING SHAKLLANISHIDA ONA TILI DARSLARINING AHAMIYATI

¹Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

²Atiyazov Sapparbay Jumamuratovich

Ilmiy rahbar: Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili kafedrasida assistenti
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7976502>

ARTICLE INFO

Received: 18th May 2023

Accepted: 26th May 2023

Online: 27th May 2023

KEY WORDS

Yozuv texnikasi, adabiy insholar, erkin insholar, epigraf, mavzuning dolzarbligi, kreativ fikrlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarining insho yozish texnikasi oshishi va yanada rivojlanib, shakllanishida ona tili darslarining ahamiyati ham katta ekanligi yuzasidan mulohazalar yuritilgan bo'lib, insholar turlarining o'ziga xos ekanligi bilan ifodalaniadi. Shuningdek, maqolada adabiy insholarning yaratilishi bilan erkin insholar o'rtasidagi farqli jihatlar qolaversa, adabiy-badiiy insholar ham izohlangan. Insholar tarkibida keluvchi kirish qism, asosiy qism va xulosaviylikning yozuv texnikasi bilan o'zaro aloqadorligi yuzasidan qarashlar mavjud.

Maktab ta'limining asosiy g'oyalaridan biri bu o'quvchi yoshlarga sog'lom fikrlash qobiliyatlarini singdirish, ularning erkin ijodiy qobiliyatlarini yanada oshirish bo'lib, bu borada insho yozish texnikasining ahamiyati katta ekanligi bilan xarakterlanadi. Insholar asosan, o'quvchi yoshlarni fikrlashga, o'ylashga chorlashi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyati insholarda namoyon bo'ladi. Buning sababai shundaki, o'quvchilar orasida ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan iste'dodlarning ko'zga tashlanishi, ular bilan ishlashilish yuzasidan boshlang'ich tushunchalar aksariyat hollarda insholar orqali nomoyon bo'ladi. "Insho yozdirishdan maqsad o'quvchilarning yozuv savodxonligini oshirish, ularni har qanday murakkab fikr-mulohaza va his-tuyg'ularni tushunarli, savodli hamda ta'sirli qilib ifodalab berishga o'rgatishdan iboratdir. Shu boisdan insho yozish tilning grammatik qoidalariga uzviy bog'langan. Hozirga kelib o'quvchilar orasida savodxonlik darajasining keskin pasayib ketishiga asosiy sabablardan biri shuki, tilimizning imlo qoidalari, grammatik normalarini ishlab chiqishda hamisha ham chuqur ilmiy asoslarga tayanilmagan".[1]

Maktab o'quvchilarining yuqori sonf o'quvchilari bilan dars tizimining muvofiqlikda tashkil etilishi ularning ijodiy fikrlash qobiliyatining yorqin namoyon bo'lishi, insho yozish qonuniyatlarining o'zlashtirilishi barobarida, egallangan bilim va ko'nikmalarga amal qilishi bilan asoslanadi. Shunga ko'ra insholar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Adabiy insholar;
2. Adabiy-ijodiy insholar;
3. Erkin insholar.



Haqiqatdan ham, insholar yuqori dinf o'quvchilarining insho yozish texnikasining o'zlashtirilish darajasiga ko'ra adabiy, adabiy-ijodiy, erkin insholarni yaratishda ona tili darslarining ahamiyati yuksak baholaniladi. O'quvchilar yozayotgan inshoning mazmun-mohiyatiga ko'ra har qanday mavzu asosida bo'lishi mumkin, biroq, insho yozish texnikasi va qonuniyatlari o'rgatiluvchi fan bu ona tili drarslaridir. Shunga ko'ra insho yozishning ham o'ziga xos ma'lum darajadagi qonun-qoidalari mavjud bo'ladi. "Ma'lumki, esse erkin fikrning - mustaqil tafakkurlarning mahsuli. U ijod. Ona tili va adabiyot darslarida insho yozish ham ijod. Insholarning bu ikki turi o'rtasidagi tafovut unchalik katta emas. Bugun ona tili va adabiyoti darslari oldiga o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgarlar fikrini anglaydigan - muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdek yuksak vazifa qo'yilgan".[2] Insho yaratishda rejalar qonuniyatiga amal qilish, qolaversa, xulosaviy qismning yakunlivchi tarkibiy qism ekanligini nunutmagan holda unda bildiriladigan fikrlarning qat'iy ekanligi, teranligi bilan ajralib turadi.

Epigraf. Epigraf yozilayotgan insholarning sarlavhasiga muvofiq keluvchi jumla yoki jumlar jamlanmasi bo'lib, inshoning mazmun mohiyati, asosiy g'oyalarini ochib berishda qo'llaniluvchi tarkibiy qism hisoblaniladi. Insholarda imloviy savodxonlik darajasi o'quvchi yoshlarning ona tili darslarida o'rgangan bilim va ko'nikmalarining shakllanishida ona tili darslarining ahamiyati katta ekanligi anglashiladi. "Insho tayyorlash jarayonida u yoki bu usulning keng tarqalishi, birinchi navbatda, tadqiqot maqsadi va mavzusiga bog'liq. Demak, agar tadqiqot mavzusi qandaydir muammoli vaziyat bo'lsa, uni tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi nazariy usul... Agar jurnalistik qiziqish mavzusi shaxsga aylangan bo'lsa, unda uning xarakterini ochib berish to'g'ri bo'ladi. Badiiy uslub ko'proq aytishga imkon beradi tabiiy ravishda Inson psixologiyasiga kirib borish, hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan holda, har qanday odamning, shu jumladan inshoning qahramonining yaxshi yoki yomonligini baholash qiyin".[3]

Insholar ahamiyatligi jihatidan bir necha tamoil va o'ziga xosliklarga ega. Ular quyidagicha:

- O'quvchilarning kreativ fikrlashini oshirish;
- Ona tiliga oid qonun qoidalarga amal qilishini tekshirish;
- Mavzuning ochib berishlik darajasi;
- Mavzuga nisbatan shaxsiy munosabat bildira olish;
- Inshoning yangilik bo'yoqlari bilan boyitilgan ekanligi.

Insholarning yaratilishiga ko'ra erkin turdagi insholar sarlavhasi, tarbiyaviy-axloqiy jihatlari bilan ajralib turadi. Adabiy insholar esa adabiy-badiiy asar qahramonlariga tavsif, izohlar bilan boyitilgan tartibda amalga oshiriladi. O'quvchilarning insho yozishi davomida yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolar bilan ishlashish, ularning oldini olishda o'qituvchining mahorat darslari, qolaversa insho yaratish bo'yicha mahorat darslari ham ahamiyatlidir. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv texnikasi bilan ishlashish, ularga so'zlarning badiiy mahorati, ijobiy-salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lishi kabilar yuzasidan tushunchalarning berib o'tilishi lozim. Shuningdek, har qanday inshoning uch tarkibiy qismi: kirish qism, asosiy qism va xulosaviylikka qat'iyaan amal qilishi lozim. Shuni aytish mumkinki, rejalar tarkibi ham mazmunan bir biriga yaqin bo'lmagan, mavzu doirasidan chetlashmagan holatda rejalar



tarkibining tuzilishi, mavjud epigraflarning xohishga tayangan holda ifodalanishi ham muhimdir. Insho tarkibida asosiy qismning masalalar bilan ishlashilishda to'g'ridan-to'g'ri e'tibor qaratilubchi masala, vaziyat va holatlarga subyektiv munosabat bildirish ham o'quvchilarning ona tili darslarida egallagan bilim va ko'nikmalarida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, insholar yaratilish tarixi, ifoda xususiyatlariga ko'ra o'quvchi yoshlarning individual tarzda rivojlanishida bosh bo'g'in vazifasini bajaradi. Bu borada, shuni aytish mumkinki, yozma nutq shaklining o'sishi, rivojlanishining to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish shakli bu insho yozish bilan belgilanadi. Insholarning belgilangan tartib-qoidalarga mos ravishda yozilishi, mazmun-mohiyatining subyektiv munosabat niqtayi nazariga asoslangan holatda ochib berilishi ham o'ziga xoslikni keltirib chiqaradi. Insholar nafaqat yozuv texnikasining rivojlanishiga balki, o'quvchi-yoshlarning kreativ fikrlash qobiliyatining o'sishiga xizmat qiladi, deyish mumkin.

References:

1. Karbayeva Qzilgul Turdimetovna. "Maktab ta'limida insho yozdirish, uni tekshirish va baholashning ilmiy-metodik asoslari" maqola. SCIENTIFIC PROGRESS – 2021
2. Shayxislamov Nursultan. "O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning o'rni". Scientific progress – 2021

INTERNET MANBALARI:

3. <https://gigafox.ru/uz/eko/primer-ocherka-kak-napisat-ocherk-cto-takoe-ocherk-v/>